

PREZIDENT MAKtablari – DAVLAT IXTISOSLASHGAN MAKtablarning muhim namunasi sifatida

Xudayberdiyeva Dilafroz Abidovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Jumayeva Guliniso Obidjon qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

“Boshlang'ich ta'lism” yo'naliishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Prezident maktablarining davlat ixtisoslashgan maktablarining muhim namunasi sifatida namoyon bo'luvchi jihatlari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: President maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablar, nodavlat ta'lim tashkilotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 20-fevraldag'i PQ-4199-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Prezident maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Prezident maktablarini tashkil etishning maqsadi iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nан yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Quyidagilar Prezident maktablarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;

- tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarni o'qitish va bilimini baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek, ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish;

- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyatda qo'llash malakasini oshirish;
- o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash;
- o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish munosabatini, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;
- o'quv dasturlarining uzlucksizligini ta'minlash masalalarida shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiyo'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalarida va ularning respublikamizdagи filiallarida o'qishini davom ettirish.

Prezident maktablari quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan (ikkita sinfga bir xil — 12 nafardan o'quvchi taqsimlangan, 24 nafar o'quvchidan iborat) yillik qabul kvotasi doirasida o'quvchilarni qabul qilish;
- tasdiqlangan o'quv rejalari va dasturlari asosida o'quv mashg'ulotlari jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- o'z ustavida belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalarni jalg qilish;
- ishchi organ bilan birgalikda yuqori malakali xorijiy mutaxassislar va boshqa xodimlarni jalg etish;
- vazirlik hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan davlat siyosati, ijtimoiy-madaniy va xalq ta'limi sohasidagi muhim masalalarni muhokama qilish va dolzarb muammolarni hal etishga bag'ishlangan yig'ilishlarda, majlislarda va boshqa tadbirdarda belgilangan tartibda ishtirok etish;
- vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan o'ziga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida, samarali va sifatli bajarish uchun belgilangan tartibda o'zaro hamkorlik qilish;
- Prezident maktablari bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (guvohnoma, shahodatnoma) bilan bir qatorda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkoniyatini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli



dastur diplomlarini (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) berish;

-sog'gom ovqatlantirishni tashkil etish uchun tanlov jarayonini amalga oshirish orqali eng yaxshi takliflar asosida tadbirkorlik subyektlari bilan shartnoma tuzish.

Prezident maktablariga respublika umumta'lim muassasalarining to'rtinchi (birinchi o'quv yilida — to'rtinchi — to'qqiz) sinf bitiruvchilari orasidan qobiliyatli va iqtidorli (baholar tabeli asosida tegishli STEAM fanlari (matematika, biologiya (tabiatshunoslik), informatika va axborot texnologiyalari, fizika, algebra, geometriya, kimyo) bo'yicha a'lo bahoga tugatgan) bolalar tanlov asosida qabul qiladi.

Prezident maktablariga qabul jarayonida o'quvchilardan a'lo baho talab etiladigan STEAM fanlarining (sinflar kesimida) tegishli ro'yxati vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

O'quvchilarni qabul qilish ishchi organ tomonidan ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan xorijiy tashkilot bilan birgalikda o'tkaziladigan kirish imtihonlari natijalari asosida amalga oshiriladi.

Prezident maktablariga qabulni to'g'ri tashkil etish mas'uliyati ishchi organga yuklanadi. Prezident maktablariga teng huquqlilik, adolat va shaffoflik prinsiplari asosida qabul qilinadi.

Belgilangan kvotaga asosan kirish imtihonlari natijalari bo'yicha eng yuqori ball olgan o'quvchilar o'qishga qabul qilinadilar.

Hujjatlar faqat nomzod o'qiyotgan umumta'lim muassasasi joylashgan hududdagi Prezident maktabiga topshiriladi.

Chet el fuqarolari Prezident maktabiga hujjatlarni topshirish huquqiga ega emas.

Prezident maktablariga kirish imtihonlari ikki bosqichda o'tkaziladi:

-1-bosqich — matematika fanidan 30 ta topshiriqdan iborat test shaklida o'tkaziladi.

Belgilangan vazifani bajarish uchun 90 daqiqa vaqt ajratiladi;

-birinchi bosqich natijasiga ko'ra qabul kvotasida belgilangan har bir o'ringa 20 kishi hisobidan maksimal talabgorlar 2-bosqichda ishtiroy etishga ruxsat etiladi;

-2-bosqich — axborotni tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini aniqlash bo'yicha — 16 ta masala;

-mantiq elementlari bo'lgan matematika fanidan — 24 ta masala;


-ingliz tilidan — 55 ta test.



2-bosqich kirish imtihonlari uchun jami 150 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchi yoshlarga buyuk ajdodlarimiz va adiblarimizning boy ijodiy merosini o‘rgatish, ularga munosib voris etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan kompleks o‘quv-tarbiya jarayonlari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5815-sonli farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining idoraviy bo‘ysunuv bo‘yicha tashkiliy tuzilmasi quyidagi chizmada keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-iyulda PQ-5188-sonli qaroriga ko‘ra:



1-rasm. Prezident ta’lim muassasalari agentligining tashkiliy tuzilmasi



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi:

- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;

- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun davlat ta’lim standartlarini tasdiqlaydi;

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona tarzda muvofiqlashtirishni hamda unga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, mazkur maktablarda bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish ishlarini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi.

Agentlik respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun o‘rnataladigan davlat ta’lim standartlari Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

“O‘qituvchi” ilmiy-uslubiy nashriyot markazi darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlash va nashr etish bilan bog‘liq ishlarni muvofiqlashtiradi va davlat xaridi bo‘yicha ta’minlaydi.

Ijod maktablarida har bir sinfdagi o‘quvchilar soni 20 nafarni tashkil qiladi, 7-sinflarga qabul qilish esa ijodiy tanlovlardan, test va boshqa sinovlar asosida amalga oshiriladi;

Ijod maktablarida o‘quvchilar sonidan qat’i nazar 1 shtat birligida kutubxonachi lavozimi kiritiladi;

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari muntazam ravishda ijod maktablarida o‘quvchilarning ijodiy iste’dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar olib boradi;

Ijod maktablarida o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari mehnatiga haq to‘lash umumiy o‘rtalama ta’lim maktablari o‘qituvchilari mehnatiga soatbay haq to‘lashga muvofiq amalga oshiriladi.

Toshkent viloyati hokimligi va “Chorvoq” erkin turistik zonasini direksiysi” DUK Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi bilan



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

tomonidan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari uchun yozgi sport-sog‘lomlashtirish oromgohi, shuningdek, Agentlik va Markaz xodimlari uchun dam olish zonasasi sifatida qulay tabiiy sharoitlarga ega yer uchastkasi ajratilgan.

Agentlik huzurida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish manbalari:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining **homiylik xayriyalari**;
- xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning **grantlari** va **texnik ko‘mak ko‘rsatish mablag‘lari**;
- Jamg‘armaning **vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini** joylashtirishdan olingan daromadlar, qonun hujjatlari bilan taqilanganmagan boshqa tushumlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini amalga oshirilishi uchun **zarur mablag‘larni** 2020-yildan boshlab **Davlat budjetining parametrlarida** har yili nazarda tutadi
- 2019-yil 1-sentabrдан boshlab ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari, shu jumladan tarbiyachilar va tarbiyachi yordamchilari mehnatning alohida sharoitlari uchun bazaviy tarif stavkasining **75 foizi** miqdorida har **oylik ustama** haqi to‘lanadi.

- O‘quv-tarbiya muassasalari shtatlar jadvallarida har **20 nafar tarbiyalanuvchiga bir nafar** **psixolog**, shuningdek, Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasiga **bir nafar shifokor-ginekolog** shtat birliklarini ajratish zarur.

- ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari ko‘pi bilan **qirq besh kun** muddatda voyaga yetmaganni Muassasaga yoki Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirishning maqsadga muvofiqligi haqida xulosa taqdim etadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi PQ-4342-son qaroriga ILOVA

Qarosiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish mumkin bo‘lgan ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari

T/r	Vazirlik va idora nomi	Maktab-internatlar soni	Litseylar soni	Jami
1.	O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi	134	—	134
2.	O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi	28	—	28
3.	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	3	2	5
4.	O‘zbekiston Respublikasi Murofah vazirligi	—	3	3
5.	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi	—	1	1
6.	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	1	—	1
7.	O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi	14	—	14
Jami		180	6	186



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Nodavlat ta'lif tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Nodavlat ta'lif tashkilotlariga litsenziya berish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish Ta'lif inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziyalar nomuayyan muddatga, ta'limning har bir turi uchun alohida beriladi. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan maktabgacha, umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lif tashkilotlari, shuningdek mактабдан tashqari ta'lifni, oliy ta'lifdan keyingi ta'lifni, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lif tashkilotlari davlat ta'lif standartlariga, davlat ta'lif talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqlik jihatidan attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

Ta'lif tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish besh yil muddatga amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мышление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.
3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lif xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lif turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.



**Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies
Hosted online from Moscow, Russia**

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 8. – C. 123-126.
7. Arziquulova S. Talim-tarbiyada MTM bilan ota-onal hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 140-143.
8. Xudoyberdiyeva D. A. Management Of Service Rendering Organizations And Its Own Characteristics //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 24-25.
9. Zakirova M. J., Abidovna X. D. Effective organization and management of preschool institution activities //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 184-191.
10. Abidovna X. D. THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2022. – T. 4. – C. 57-60.
11. Abidovna X. D. Features of the formation of services industry management //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 7. – C. 142-148.
12. Аббосов Б. А., Худайбердиева Д. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ "УПРАВЛЕНИЕ" И "МЕНЕДЖМЕНТ" //Проблемы и достижения современной науки. – 2019. – №. 1. – С. 74-75.